

**MALAKAVIY  
AMALIYOTLARNI TASHKIL  
ETISH METODIKASI**

**TOSHKENT**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRILIGI**  
**TOSHKENT VILOYAT DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**MALAKAVIY AMALIYOTLARNI  
TASHKIL ETISH METODIKASI**

*(«Pedagogika va psixologiya» ta'lim yo'nalishi talabalari uchun  
metodik qo'llanma)*

**TOSHKENT – 2013**



## KIRISH

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov «Insoni shaxsini, uning yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy istiqloq mafkurasini shakllantirish, yosh avlodni boy madaniy merosimiz hamda tarixiy qadriyatlarimizga hurmat-e'tibor, mustaqil Vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash talablari oldimizga muhim vazifalarni qo'yimoqda» deb alohida ta'kidlaydi. Bu vazifalar, birinchi navbatda kelajakning bunyodkorlari bo'lmish yosh avlodni bilim olish, yuqori malakali kadrlar bo'lib o'z yurti va xalqiga sidqidildan xizmat qilishlarini nazarda tutadi. Zero, mustaqillik aynan fidoyi, o'z Vatani manfaatiga sadoqatli, malakali raqobatbardosh kadrlarning jamiyatni boshqarishini taqozo etadi.

Zamonaviy kadrlar oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri – malakali mutaxassislar sifatida o'zligi, o'z qobiliyati, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan holda mehnatni oqilona va ilmiy asosda tashkil etish hamda ijtimoiy foydali mehnatning barcha sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat yuritishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da davlatimizning ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ta'limni ustuvor deb e'lon qilinishi pedagogika va psixologiya fani zimmasiga mas'uliyatli vazifa yuklaydi.

Yurtimizda davlat mustaqilligini mustahkamlash sharoitida insonning ijtimoiy-ma'naviy hamda kasbiy salohiyati va aql-zakovatidan samarali foydalanish manfaatlarini hisobga olish birinchi o'ringa qo'yilgan. Shu sababli tub islohotlarni amalga oshirishda bozor munosabatlarini shakllantirish, eng avvalo, bo'lajak mutaxassisning ham nazariy bilimlar, ham amaliy ko'nikmalariga bog'liqdir. Talabalarning ijodiy tafakkurini o'rganmasdan turib, kasbiy mahorat qirralarini shakllantirib bo'lmaydi. Har bir sohada bo'lgani kabi pedagogikada ham nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish muhim omillardan biri bo'lib, talabaning ayni paytda kasbiy faoliyatga bo'lgan munosabat mezonini belgilaydi. Shu ma'noda talabaning egallagan nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog'lash ta'lim tizimini takomillashtirishning asosini tashkil qiladi. Demak, talabaning bitiruv oldi amaliyotidan ko'zlangan asosiy maqsad – bo'lajak mutaxassisni mustaqil kasbiy faoliyat olib borishlarini

UO'K: 88.82 (075)

KBK 74.202.5

M-21

**M-21      Malakaviy amaliyotlarni tashkil etish metodikasi.**  
-T.: «Fan va texnologiya», 2013, 52 bet.

ISBN 978-9943-10-911-7

Qo'llanma «Talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimi to'g'risida»gi Nizom hamda «Tabalarining malakaviy amaliyoti haqidagi Nizomi»ga asosan tayyorlandi. Qo'llanma kirish, bitiruv oldi amaliyotida amaliyotchi talabalarining vazifalari, bitiruv oldi amaliyotining borishi, amaliyotchi talabaning kundaligi, bitiruv oldi amaliyoti yakunida talabalar tomonidan tayyorlanadigan hisobotlar to'g'risida ma'lumotlar ishlab chiqilgan.

Ushbu qo'llanma pedagogik amaliyot rahbarlari hamda 5140800 - «Pedagogika va psixologiya» ta'lim yo'nalishi bakalavr tala-balari uchun mo'ljallangan.

**Tuzuvchilar:** Q.M.Ahmedov – dotsent;  
H.Sh.Gaziyeva – Psixologiya fani o'qituvchisi;  
X.Xatamova – «PP-38» guruh talabasi.

**Taqrizchilar:** T.B.Norimbetov – psixologiya fanlari nomzodi;  
Z.M.Kishpeyeva – Angren shahar Pedagogika kolleji  
direktor muovini, katta o'qituvchi.

*Uslubiy qo'llanma TVDPI ilmiy Kengashining qarori bilan nashr etildi.*

ISBN 978-9943-10-911-7

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2013.

## **I bob. KASB-HUNAR VA PEDAGOGIKA KOLLEJLARIDA BITIRUV OLDI AMALIYOTINI TASHKIL ETISHNING ILMIY- USLUBIY ASOSLARI**

### **1.1. Bitiruv oldi amaliyotining ilmiy-uslubiy jihatlar**

Bitiruv oldi amaliyoti bo'lajak muhandis-pedagoglarni mustaqil faoliyatga kasbiy-pedagogik jihatdan tayyorlashda eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Shunga ko'ra «Pedagogika va psixologiya» yo'nalishi bo'yicha bakalavr talabalar amaliyotini to'g'ri tashkil qilish va uni o'tkazish, bo'lajak pedagog-psixoglarni tayyorlash sifatini oshirishning eng muhim shartlaridan biridir. Hozirgi zamon kasb-hunar va pedagogika kollejlariga malakali raqobatbardosh, har tomonlama zamonaviy bilimlarga ega, yetuk kadrlarni tayyorlash muhim vazifa hisoblanadi.

Nazariy-metodik va amaliy tayyorgarlikni chuqurlashtirish hamda takomillashtirish uchun «Pedagogika va psixologiya» yo'nalishi talabalar bitiruv oldi amaliyotini o'taydilar. Bitiruv oldi amaliyoti jarayoniga pedagog-psixoglarni tayyorlash, ularni pedagogik faoliyatni chuqur o'rganish va ushbu jarayonga kasbiy moslashishini ta'minlash masalasi oliy ta'lim rahbariyati bilan kasb-hunar va pedagogika kolleji ma'muriyatining o'zaro hamkorlik shartnomasi asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birgalikda amaliyotchi talabalarning bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlantirish, ta'limning jadal shakl va metodlari hamda uslub va vositalarini qo'llagan holda darsdan tashqari mashg'ulotlar, individual psixologik suhbatlar va tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirish masalasiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Chunki fan, ta'lim va ishlab chiqarish tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirishda kasb amaliyotining alohida o'rni bor.

Talabalar bitiruv oldi amaliyotini tashkillashtirishda: institutning akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bo'yicha prorektori, mutaxassislik kafedrası professor-o'qituvchilari, kasb-hunar va pedagogika kolleji ma'muriyati, o'quv-ishlab chiqarish va ma'naviy-axloqiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari, kollej psixologi, uslubchi-o'qituvchi, ishlab chiqarish ta'limi o'quv ustasi va guruh rahbari mas'ul hisoblanadi.

ta'minlash asosida ularning egallagan bilim, ko'nikmalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan.

Amaliyotda talabalarining kasb-hunar va pedagogika kollejlari ishlashga tayyorgarlik darajasi sinovdan o'tadi. Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishda ularning bilim, ko'nikma va malakalari qay darajada shakllanganligi ma'lum bo'ladi. Talabalar qaysi fanlarni yaxshi o'zlashtirganligi va qaysilarini talablar darajasida o'zlashtira olmagan, dars matnini tuzish va darsdan tashqari mashg'ulotlarni mustaqil ravishda rejalashtirish hamda ko'rgazmali qurollarni tayyorlay olish ko'nikmasiga ega bo'lish kabi amaliyot talablari jarayonida egallayotgan kasbiga bo'lgan munosabatlari aniq bo'ladi.

Amaliyot davrida shunday holatlar kuzatiladiki, aksariyat talabalar nazariy va amaliy bilimlarni bog'lash hamda amaliy ishlarni namoyish qilib ko'rsatishda ma'lum kamchiliklarga yo'l qo'yadilar. Jumladan, dars o'tish, darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishda turli xil qiyinchilik va muammolarga duch keladilar. Ana shunday hollarda amaliyot davomida pedagogik amaliyot rahbarlaridan kerakli maslahatlar olgan holda o'zlari yo'l qo'ygan kamchiliklar hamda muammolarni kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf qilish yo'l-yo'riqlarini o'rganib borishlari lozim. Bu jarayonda tabalarning nazariy bilimlarigina mustahkamlanib qolmay, balki pedagog uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalari ham tobora takomillashib boradi hamda pedagogik mahorat qirralari shakllanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablariga muvofiq oliy ta'lim standartlari sifatli ta'lim olish, shuningdek, ta'lim va kasb-hunar jihatdan tayyorgarlikning shakllari va turlarini tanlash, uzluksiz malaka oshirib borish, zarurat taqozo etsa, tegishli qayta tayyorgarlikdan o'tish huquqi va keng imkoniyatlarini nazarda tutadi.

O'quv rejasiga asosan «Pedagogika va psixologiya» yo'nalishidagi bakalavr talabalarining umumkasbiy bilimlarni o'zlashtirishlari uchun jami soat mo'ljallangan bo'lib, shulardan 756 soati bitiruv oldi amaliyotini o'tashga ajratilgan.

Mazkur metodik qo'llanmada bo'lajak pedagog-psixolog bakalavrlar uchun zarur bo'lgan pedagogik talablar bayon etilgan bo'lib, amaliyotning ilmiy-metodik jihatlari, tarkibi va uni amalga oshirish bo'yicha metodik tavsiyalar, pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari, uni o'tkazishning asosiy bosqichlari, amaliyot davomida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarining mazmuni, amaliyotga oid zarur bo'lgan hujjatlarni rasmiylashtirishga doir namunalar keltirilgan.

faoliyatga psixologik moslashuvini tezlashtirish va bitiruv malaka ishlarini samarali yakunlash maqsadida bitiruv oldi amaliyoti tashkil etiladi. Ularni pedagogik faoliyatga psixologik moslashuvini ilmiy asosga qo'yish va uni ro'yobga chiqarishda kasb-hunar va pedagogika kollejlari jamoasining o'zini muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun kasb-hunar va pedagogika kollejlari jamoasi amaliyotchi talabalarga yetarli darajada sharoit yaratib berishlari talab etiladi.

Bitiruv oldi amaliyoti davrida talabalar quyidagi vazifalarni bajaradilar:

#### I. Kollej faoliyati bilan tanishuv:

- kollej tarixi;
- kollejdagi ta'lim yo'nalishlari;
- kollej shart-sharoiti;
- kollejdagi mavjud me'yoriy hujjatlar;
- kollej jamoasi;
- kollej direktori, direktor muovini, o'quv bo'limi boshlig'i ish faoliyati hamda ish rejallari;
- «Ma'naviyat va ma'rifat» zallari va xonalari;
- kollej psixologi xonalari;
- guruh rahbarining talabalar bilan amalga oshirayotgan tarbiyaviy ishlari tizimi;
- «Kamolot» YOIHning faoliyati;
- kasbga yo'llash (kasb tanlash) markazining faoliyati;
- maxsus fanlar o'qituvchilarining pedagogik faoliyati;
- to'g'arak rahbarlarining mehnat faoliyati bilan tanishadilar.

#### II. Talabalar faoliyatini o'rganish:

- kollej talabalarining psixologik-pedagogik xususiyatlarini o'rganish;
- bir talabaga va guruh talabalariga psixologik-pedagogik tavsifnoma yozish;
- guruh rahbarining sust o'zlashtiruvchi va tarbiyasi qiyin bo'lgan talabalar bilan ishlash uslubi;
- maxsus fan o'qituvchilarining dars jarayonida talabalar faolligini oshirish borasida olib borayotgan uslubiy ishlar tizimi;
- kollej talabalarining darsdan tashqari olib boradigan ishlari;
- darslarni kuzatish va uni tahlil qilish;
- darsga tayyorgarlik ko'rish (ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar tayyorlash va texnik vositalardan foydalanish)ni amalga oshirish.

Bitiruv oldi amaliyoti tizimi asosan quyidagi kurslarni o'z ichiga qamrab oladi:

- «Umumiy pedagogika», «Korreksion psixologiya», «Pedagogik mahorat», «Zamonaviy pedagogik texnologiyalar», «Psixologik xizmat», «Psixologik maslahat» fanlarini chuqur o'rganish maqsadida kasb-hunar kolleji bilan tanishuv;

- pedagog-psixolog sifatida amaliyot darslarini kasb-hunar va pedagogika kollejlarida tatbiq etish;

- amaliyot tizimining barcha elementlari tegishli yo'nalishlar bo'yicha zaruriy dasturlarda ifoda etiladi.

Bitiruv oldi amaliyotiga rahbarlik institut professor-o'qituvchilari va kasb-hunar kolleji rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi.

Kasb-hunar va pedagogika kollejlari talabalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarga mahallalar, pedagogik tuzilmalar, psixologlar «Kamolot» YOIH, pedagogika kafedrasida boshchiligida jalb qilinsa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi. 4-kurs talabalarining bitiruv oldi amaliyotini mutaxassislik kafedrasida professor-o'qituvchilari, metodist-o'qituvchilar, maktab direktorlari, ularning o'quv-ishlab chiqarish va ma'naviy-ma'rifiy ishlarda bo'yicha o'rinbosarlari, mutaxassislik fan o'qituvchilari, guruhi rahbarlari, ishlab chiqarish ta'limi o'quv ustasi, o'quv yurti jamoatchilik tashkilotlari, fan uyushmalari boshliqlari boshqaradilar va nazorat qilib boradilar.

Amaliyotning aniq tashkiliy va pedagogik faoliyatini yuritish mazkur tizimning boshqaruv tashkiloti va uning me'yoriy hujjatlariga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Bitiruv oldi amaliyotiga jalb etilayotgan talabalar uchun psixologik-pedagogik sikl – «Psixologiya», «Pedagogika asoslari», «Pedagogik mahorat», «Yosh davrlar psixologiyasi», «Ijtimoiy psixologiyasi», «Oila psixologiya», «Yangi pedagogik texnologiya», «Psixologik xizmat» fanlarini amaliyotdan oldin o'tilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Negaki, bu fanlarsiz talabalar pedagogik amaliyot topshiriqlarini bajara olmaydilar.

## 1.2. Bitiruv oldi amaliyotini tashkil qilish

Bitiruv oldi amaliyoti «Pedagogika va psixologiya» yo'nalishi IV kurs bakalavr talabalar uchun bahorgi semestrda bo'lib o'tadi. Bitiruv oldi amaliyoti talabalar uchun pedagogik kasbini amaliy o'zlashtirish uchun qo'yilgan birinchi qadam hisoblanadi. Talabalarning pedagogik

Kundalik daftarga quyidagilar qayd etiladi:

- amaliyotchi talabaning shaxsiy ish rejasi;
- dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar tahlili va yozuv ishlari;
- yig'ilgan materiallar bo'yicha alohida talaba va talabalar guruhi uchun psixologik-pedagogik tavsifnoma;
- boshqa tadbirlar va ishchi rejalar;
- talabaning alohida fikr-mulohazasi, xulosa hamda takliflari.

Shuningdek, talaba tomonidan har kuni bajarilgan ishlar kundalikka yozib borilishi shart. Kundalik daftar amaliyotchi talaba bilan doimiy birga bo'lishi talab qilinadi.

4. Bitiruv oldi amaliyoti tugaganidan so'ng amaliyotchi talaba pedagogik amaliyot davrida bajargan ishlari to'g'risida mutaxassislik kafedralariga hisobot topshiradi. Hisobot natijasi «Muhandislik pedagogika va psixologiyasi» kafedrasini bilan hamkorlikda ko'rib chiqiladi.

Bitiruv oldi amaliyotini o'tab kelgan talaba o'z hisobotida quyidagilarni yoritishi shart:

- kollej tarixi va kollej jamoasi to'g'risida ma'lumot;
- kollejda olib borgan o'quv-tarbiyaviy ishlari;
- ishlab chiqarish ta'limi va maxsus fanlar bo'yicha o'tgan dars soatlari, mavzusi, dars konspektlari;
- darsdan tashqari o'tkazgan tadbirlar rejasi;
- dars davomida va yakunida o'tkazgan nazorat ishlari bo'yicha baholash mezonlari;
- talabalarga qo'ygan reyting ballari to'g'risida ma'lumot;
- pedagogik amaliyot to'g'risida amaliyotchi talabaning xulosasi;
- kollej ma'muriyati tomonidan amaliyotchi talabaning amaliyot davomidagi faoliyatini baholovchi tavsifnoma.

Hisobot kollej amaliyot rahbari tomonidan qo'l qo'yilib, muhr bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Bitiruv oldi amaliyoti davrida amaliyotchi-talaba tomonidan tuzilgan dars va darsdan tashqari mashg'ulot hamda boshqa tadbirlar rejasi, shuningdek, dars jarayonida foydalangan dars konspektlari kollej amaliyot rahbari tomonidan tasdiqlangan bo'lishi shart.

Amaliyotchi talabalar bitiruv oldi amaliyoti davrida bajargan ishlari bo'yicha hisobotlarini asosan kollej va institut tomonidan tayinlangan amaliyot rahbarlari ishtirokida himoya qiladilar.

### III. Ta'lim-tarbiya jarayonida faol ishtirok etish:

- «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati yetakchisi bilan hamkorlikda guruh tarbiyaviy ishlarini rejalashtirish va tashkil etishga yordam berish;
- guruh rahbari bilan birgalikda tarbiyaviy ishlarni olib borish;
- kollej talabalari o'rtasida uyushtiriladigan turli xil kasb-hunarni egallashga oid seminar-trening, musobaqa va ko'rik-tanlovlarni tashkil etish;
- mustaqil ravishda turli tarbiyaviy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish;
- fanlar bo'yicha qiyin o'zlashtiruvchi talabalarga pedagogik-psixologik yordam berish;
- mustaqil ravishda nazorat darslari o'tishga tayyorgarlik ko'rish;
- metod o'rganish bo'yicha kollej o'qituvchilarining darslarini kuza-tish;
- jadval asosida talabalar tomonidan o'tiladigan darslarni kuzatish va tahlilda ishtirok etish;
- mustaqil ravishda nazorat darsi o'tib berish ishlari amalga oshiriladi.

### 1.3. Amaliyotchi talabaning vazifasi

1. Bitiruv oldi amaliyoti davrida amaliyotchi talaba institut rahbariyati yo'llanmasiga (buyrug'iga) asosan kasb-hunar kolleji pedagogik jamoasining muvaqqat a'zosi hisoblanadi. U amaliyot davrida ta'lim-tarbiyaga oid savollar bilan kollej tomonidan biriktirilgan amaliyot rahbari va kollej ma'muriyati hamda kollej fan o'qituvchilariga murojaat etishga haqlidir. Amaliyotchi talaba ish o'rganish maqsadida kollej pedagogik yig'ilishlari, kasaba uyushmasi va «Kamolot» YOIH majlis-larida qatnashishi mumkin. Shuningdek, kollej kutubxonasidan o'quv-uslubiy qo'llanmalardan foydalanish huquqiga ega hisoblanadi.

2. Amaliyotchi talaba kollej Nizomi (Ustavi) bo'yicha barcha ichki-tartib qoidalariga bo'ysunadi. Agar amaliyotchi talaba ma'muriyat talablari, amaliyot rahbari ko'rsatmalarini bajarmasa, shuningdek, kollej tartib-qoidalarini buzsa, pedagogik amaliyotdan chetlashtiriladi va bu haqda tegishli xat orqali kafedra yoki institut o'quv bo'limiga xabar qilinadi. Bunday holda talaba amaliyot o'tamagan hisoblanadi.

3. Amaliyot jarayonida talaba kundalik daftar yuritadi. Kundalik daftar amaliyotchi talabaning asosiy ishchi hujjati hisoblanib, uning pedagogik faoliyati yoritilib boriladi.

## **II bob. BITIRUV OLDI AMALIYOTINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI**

### **2.1. Bitiruv oldi amaliyotining tashkiliy-pedagogik asoslari**

#### ***Bitiruv oldi amaliyotining birinchi haftasida har bir talaba:***

- 1) kolleжда har kuni 5 soatdan qat'iy reja asosida ishlashi;
- 2) har kuni kamida 2 soat dars kuzatishi;
- 3) maxsus fanlar yoki ishlab chiqarish ta'limi bo'yicha o'zi o'tadigan darslar hamda darsdan tashqari o'tkazadigan mashg'ulot va tadbirlarning rejasini tuzishi;
- 4) o'zi o'tadigan mavzularga oid qurilma, asbob va moslamalarni mavjudligini aniqlashi, ularni ishga yaroqliligini tekshirishi, agarda asbob-uskunalar yetarli bo'lmasa, mavzuga oid ko'rgazmalar tayyorlashi;
- 5) o'tadigan darslarga oid bo'lgan ko'rgazmali qurollar va texnik vositalarning mavjudligi va ishga yaroqliligini aniqlashi;
- 6) kamida 2-3 soatlik dars konspektlarini tuzish va kollej maxsus fan o'qituvchisi yoki amaliyot rahbaridan tegishli uslubiy maslahatlar olishi;
- 7) o'ziga biriktirilgan guruh rahbari va guruh jurnali bilan tanishishi;
- 8) rahbarlik qiladigan guruhdagi ilg'or va o'zlashtirishi qiyin bo'lgan talabalarni aniqlab, ular bilan individual ishlash tadbirlarini ishlab chiqishi;
- 9) metodist-o'qituvchi bilan birga kollej maxsus fan o'qituvchilarining darslarini kuzatib, muhokamasida qatnashishi;
- 10) amaliyotning keyingi davri uchun individual reja tuzishi;
- 11) amaliyot rahbarlari tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish tadbirlarini belgilashi va rejasini tuzishi.
- 12) o'ziga biriktirilgan guruh talabalarining familiyalarini to'la bilib olishi;
- 13) guruh rahbari, maxsus fan o'qituvchisi hamda ishlab chiqarish ta'limi ustasidan navbatdagi bajariladigan ishlar bo'yicha topshiriqlar olishi;
- 14) ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar yoki devoriy gazetalar tayyorlashni kollejdin tayinlangan amaliyot rahbari bilan kelishib

#### **1.4. Talabaning bitiruv oldi amaliyoti rejasi**

1. Kollej bilan tanishish.
2. Kollej strukturasini aniqlash.
3. Biriktirilgan guruhni o'rganish va faoliyatini yuritish.
4. Biriktirilgan guruhda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish.
5. Talabalar bilan to'g'arak faoliyatida darsdan tashqari mashg'ulotlarni amalga oshirish.
6. Darslarni tashkil etishda foydalaniladigan metodlarni belgilash.
7. Dars jarayonlarining tashkil etilishi, o'qitish metodikasini o'rganish va tahlil qilish.
8. Noan'anaviy dars o'tish jarayonini tasniflash.
9. Yangi pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tish metodikasini ishlab chiqish.
10. Bitiruv malaka ishi mavzusi bo'yicha atamalar lug'atini ishlab chiqish.
11. Bitiruv malaka ishi mavzusida foydalaniladigan adabiyotlar ro'y-xatini tuzish.

h) har bir amaliyotchi didaktik talablar darajasida ko'rgazmali qurollar tayyorlashi va ulardan foydalanishi;

i) kollej jamoasi oldida o'z-o'zini boshqara olishi (ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogning mahorati, o'z-o'zini boshqarishi, xulqi, talabalar bilan muomalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun har bir amaliyotchi talaba intizomli, madaniyatli, xushmuomala, so'zini ustidan chiqadigan bo'lishi, har bir ishni aniq bajarishi, o'ziga va boshqalarga e'tibor berishi, dars konspekti hamda rejasini tuza bilishi, qo'shimcha misollar, hayotiy misollar, dalillar bilan boyita oladigan bo'lishi lozim);

i) institut va kollej tomonidan tayinlangan amaliyot rahbarlari hamda o'ziga biriktirilgan guruh rahbarining barcha topshiriqlarini so'zsiz bajarishi;

k) metodik ko'rsatmaga asosan o'ziga biriktirilgan guruhdagi kamida 1-2 talabani kuzatib, unga psixologik-pedagogik tavsifnoma yozishi;

l) kollej pedagogik yig'ilishida, metod birlashma va ota-onalar majlisida faol qatnashishi;

m) bitiruv malakaviy ishi yuzasidan tanlangan mavzusi bo'yicha materiallar to'plashi va ularni aprotasiyadan o'tkazishi kabi *ishlarni bajarishi talab etiladi*.

***Pedagogik amaliyot yakunida amaliyotchi talabalarning reyting ballarini hisoblashda ularning quyidagi bajargan ishlari hisobga olinadi:***

a) kundalik daftarining sifati va pedagogik mazmuni;

b) reyting darslari (tuzgan testlari);

d) texnik vositalardan mustaqil foydalana olishi;

e) o'qitish metodlaridan unumli foydalanishi;

f) kuzatgan darslarining tahlili (soni, sifati);

g) ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar tayyorlaganligi;

h) darsdan tashqari o'tkazgan tadbirlari;

i) olib borgan to'garak mashg'ulotlari;

j) guruh rahbarligi bo'yicha bajargan ishlari;

k) psixologik-pedagogik tavsifnoma yoza olishi;

l) tayyorlagan hisoboti.

olishi kabi ishlarni amalga oshirishi lozim.

***Pedagogik amaliyot davomida har bir talabani quyidagi o'quv - tarbiyaviy ishlari:***

a) kamida 10-12 soat dars o'tishi, har bir darsni ko'rgazmali qurollar asosida va o'qitishning ilg'or texnik va texnologik vositalaridan foydalangan holda amalga oshirishi va bittadan nazorat darsi tayyorlashi talab etiladi;

b) talabalar bilan mavzuga oid sayohatlar (ekskursiya) tashkil etishi;

d) kamida bir marotaba darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy tadbirni amalga oshirishi, ya'ni bunda fan kechasi, ilg'or kasb egalari bilan uchrashuvlar, tadbir mavzusiga oid devoriy gazeta chiqarish, to'garaklarda mashg'ulotlar tashkil etishi;

e) dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni maxsus dastur va reja asosida tashkil etishi (amaliyotchi talaba metodist-o'qituvchi yoki amaliyot rahbari, maxsus fan o'qituvchisini oldiga kerakli maslahatlarga kirganda uning qo'lida o'tadigan darsning yoki darsdan tashqari mashg'ulot va tadbirlarning rejasi bo'lishi, tegishli maslahatlarni olgandan keyin dars konspektini yozishi, kollej o'qituvchisi yoki metodist-o'qituvchisiga ko'rsatishi, konspekt darsni o'tishdan kamida bir kun ilgari tasdiqlanishi);

f) darslarga oldindan puxta tayyorgarlik ko'rishi (amaliyotchi talabani darsi samarali chiqishi uchun avval u o'z kursdoshlariga va metodist-o'qituvchiga dars o'tib ko'rsatishi lozim. Bu vaqtda u doskadan umumli foydalanish, mavzuni bayon qilish, dars vaqtini to'g'ri taqsimlab, ijobiy tashkil etishi, dars jarayonida amaliy ishni qanday bajarish, texnika xavssizligiga rioya qilish, asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanish yo'llarini aniqlab oladi);

g) kollej reyting Nizomiga asosan talabalarni baholab borishi (ma'lumki, har bir chorak so'ngida talabalarning umumiy reyting ballari e'lon qilinadi. Amaliyotchi talaba buni albatta nazarda tutishi zarur, shuning uchun u dars jarayonida talabalarni kollej reyting Nizomiga asosan baholab borishi va talabalarning reyting ballarini o'z vaqtida e'lon qilib borishi zarur. Bu borada ko'proq bo'sh o'zlashtiruvchi talabalar bilan ishlab ularni o'rta va undan yuqori darajaga ko'tarishga, ilg'or talabalar bilan turli zamonaviy dars masalalarni hal qilib, o'z kasbi va ixtisoslik faniga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirishga erishishi kerak);

### **3. *Kasb-hunar kolleji direktorining o'quv ishlari bo'yicha muovini:***

- talabalarni mutaxassislik fanlari bo'yicha malakali o'qituvchilar darsiga qatnashishini tashkil etadi, ularni o'qituvchilarga birlashtirish ishlarini amalga oshiradi. Rejalashtirilgan hujjatlarni tuzishda talabalarga amaliy yordam va maslahatlar beradi;
- birinchi hafta oxirida amaliyot kundaligi to'ldirilishi, talabalarning shaxsiy ish rejalarini amaliyot rahbari va mutaxassislik fani o'qituvchilari tomonidan imzolanishini ta'minlaydi;
- kollej tuzilishi, tarkibi, tarixi va kollej istiqboli to'g'risida suhbat uyushtiradi;
- kollejning moddiy-texnik bazasi, undagi maxsus kabinetlar va laboratoriyalar, pedagoglar faoliyati, vasiy korxonalar haqida aniq axborot beradi;
- kasblar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash haqida ma'lumot beradi;
- kollej talabalari soni, pedagogik muammo va yutuqlar to'g'risida batafsil tushuntiradi;
- o'quv ishlarni tashkil qilish va hujjatlarni yuritishni o'rgatadi;
- o'qituvchilar jamoasida uslubiy ishlarni tashkil qilish va olib borish haqida ma'lumot beradi;
- kollejning amaliyot davridagi ish rejasi bilan tanishtiradi;
- ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash muammolari va yutuqlari to'g'risida suhbat uyushtiradi;
- kollej ish rejimini tushuntirib, kutubxona fondidan foydalanishni tashkil etadi;
- institut tomonidan tayinlangan amaliyot rahbari bilan birgalikda dars jadvallarini tuzish jarayonida darsdan tashqari mashg'ulotlar va tadbirlarni rejalashtiradi;
- talabalarning bitiruv oldi amaliyotini o'tkazilishini qonuniy rasmiylashtiradi va bu borada kollej buyrug'ini chiqaradi;
- talabalar faoliyati va davomati bo'yicha «nazorat» ishlarini olib boradi.

### **4. *Kasb-hunar kolleji direktorining ma'naviy-axloqiy ishlar bo'yicha muovini:***

- amaliyotchi-talabalarni guruh rahbarlari bilan tanishtiradi;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish va hujjatlarni yuritishni o'rgatadi;
- to'garaklar faoliyatini yuritish bo'yicha maslahatlar berib boradi;
- iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'yicha ko'rsatmalar beradi;


## 2.2. Bitiruv oldi amaliyoti birinchi tanishtiruv haftasining tashkiliy jihatlari

Bitiruv oldi amaliyotining birinchi haftasida talabalarning kommunikativ aloqalari shakllanishi bilan bir qatorda, o'zini o'qituvchi va tarbiyachi roliga his qila olish imkoniyati yaratiladi.

Amaliyot o'tayotgan talabalar uchun quyidagi ko'p tarmoqli kommunikativ bog'lanishlar tizimi umumiy ta'sir ko'rsatishi va ijobiy natijalar berishi mumkin. Bu hamkorlik bog'lanishlar tizimi quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi (1-2-chizmalarga qarang).

Institut amaliyot rahbari kommunikativ aloqasining sxemasi

1- chizma



Ushbu hamkorlik asosida bitiruv oldi amaliyotining 1-tanishtiruv haftasida har bir ishtirokchi faoliyati va ularning uzviy bog'liqligi quyidagicha izohlanadi:

1.*Institut amaliyot rahbari* institutda mutaxassislik kafedralari hamkorligida amaliyotchi talabalar bilan «*Amaliyot oldi konferensiyasi*»ni tashkil etadi, rektor buyrug'i asosida talabalarni kasb-hunar kollejlariiga biriktiradi va ularni zarur me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlaydi.

2.*Kasb-hunar kolleji direktori* – amaliyotchi talabalarni guruhlariga taqsimlash va kollej tomonidan rahbar tayinlash to'g'risida buyruq chiqaradi.

Amaliyotchi-talabanning bitiruv oldi amaliyotidagi 1-tanishuv haftasidagi faoliyati quyidagi bosqichlarda davom etadi:

- kollej moddiy-texnik bazasi, o'qituvchilar va ularning ish uslubi bilan yaqindan tanishadi;

- o'quv xonalari, ularning moddiy ta'minlanganlik darajasi, maxsus adabiyotlar, kundalik reja, istiqbolli-mavzuviy reja, o'quv dastur va rejalar bilan tanishadi.

- me'yoriy hujjatlar, ma'naviy-tarbiyaviy ishlar rejaları, guruh rahbarlarining rejaları bilan tanishadi.

### **2.3. Dars jarayonini kuzatish, o'qitish metodikasini o'rganish va tahlil qilish**

Amaliyotchi talaba darsni kuzatish jarayonida dars berayotgan o'qituvchining qo'lida sinf jurnali, davlat ta'lim standartlari asosida tayyorlangan o'quv dasturi kalendar-mavzu rejasi, dars konspekti darslik va o'quv qo'llanma mavjudligini e'tibordan qoldirmasligi lozim. U dars kuzatish jarayonida o'qituvchi bilan birga kirib kelib, orqa o'rindiqlarning biriga borib o'tirish lozim. So'ngra darsni quyidagicha tahlil qilib borishi talab etiladi:

**1. Tashkiliy tahlil.** Guruhning darsga tayyorgarligi, avvalo, bolalarning kayfiyati, sog'lig'i va auditoriya, doskaning ozodaligi, bo'r va lattaning borligi, guruh havosining tozaligi, maboda ayrim o'quvchilar biron sababga ko'ra darsda qatnashmayotgan bo'lsa, ularning nomi yozilgan varaqchani o'qituvchi stoliga navbatchi yoki guruh boshlig'i tomonidan qo'yilishi kabilardan tashqari, o'z navbatida, o'qituvchining darsga hozirligi, kayfiyati dars uchun kerakli jihozlar, ko'rsatmali va tarqatma materiallar hamda texnikaviy asbob-anjomlarning mavjudligi hamda o'qituvchining tashqi qiyofasi, kiyinish madaniyatiga ham e'tibor beriladi.

**2. Ilmiy tahlil.** Bunda ilm asosida bilim berish prinsipiga asoslanilganligi e'tirof etiladi. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyasining rivoji ilmiy bilimlar bilan qurollanishni hamda uzluksiz ta'lim jarayonida talaba-yoshlarni ilmiy tadqiqot metodlari asosida izlanishlar olib borishni talab etadi. Ilmiy bilimlar o'zining nazariy jihatdan puxtaligi, hayot va amaliyot bilan izchil bog'liqligi asosida ajralib turadi. Shunga ko'ra, bugungi fan-texnika rivoji ta'lim mazmuniga singdirilgan holda o'quvchi va talabani onigiga yetkazib beriladi. O'qituvchining har bir darsi ilmiy asoslangan bo'lib, o'quv-

- «Kamolot» YOIH bilan hamkorlikdagi ishlar to'g'risida ma'lumot beradi.


Birinchi tanishuv haftasi yakunlanganidan so'ng, institut tomonidan tayinlangan amaliyot rahbari, kollej direktorining o'quv ishlari bo'yicha muovini, amaliyotchi-talabalar, pedagoglar bilan birgalikda yig'ilish o'tkaziladi. Ushbu yig'ilishda amaliyotchilar tomonidan hafta davomida to'plangan materiallar va kuzatuv ishlari xususida axborot beriladi.

Bitiruv oldi amaliyotining 1-tanishuv haftasida amaliyotchi-talabalar birlashtirilgan kollej o'qituvchilari bilan hamkorlikda:

- o'qitish usullari to'g'risida suhbat o'tkazishlari;
- kollej talabalarining mustaqil ishlariga e'tibor qaratish va ularni baholash mezonini o'rganib chiqishlari;
- kollejdagi mavjud dars xonalari va ularning o'quv jihozlari bilan ta'minlanganligini ko'zdan kechirishlari;
- tajribali o'qituvchilarning faoliyatini kuzatish va ularning ish tajribalari orqali o'z ish tizimini shakllantirishlari;
- talabalar guruhi bilan tanishishlari;
- bitiruv oldi amaliyoti davrida darsdan tashqari ishlar va o'quv ishlarni rejalashtirishlari;
- amaliyotchi-talabaning birinchi mustaqil darsga tayyorgarligini boshqarishlari;
- metodik ishlar mavzulari va ularni tashkil etishni rejalashtirish lozim.

### Amaliyotchi-talabaning kommunikativ aloqasi

2-chizma



**5. Metodologik tahlil.** Ma'lumki, milliy istiqloq g'oyasi shaxsning ijtimoiy tafakkurida tobora mustahkam o'rin egallab bormoqda. U endi nazariy konsepsiya, ta'limot darajasidan amaliy harakatga aylanayotgan bir sharoitda pedagogik g'oyaning o'rini belgilab olish lozim. O'quvchi va talaba yoshlarning orzu-intilishlari, kelajak maqsadlarini milliy istiqloq g'oyasi bilan hamohang qilish, shu g'oyaning tarkibiga singdirib yuborishda o'qituvchining innovatsion faoliyati va shu asosida pedagogik g'oyalarni uzluksiz ta'lim jarayonida takomillashtirib borishi muhim o'rin tutadi.

Milliy istiqloq g'oyasi va uning tarkibiy qismi bo'lgan pedagogik g'oyani o'quvchilar va talaba yoshlar e'tiqodiga aylanishida tizimli va maqsadli ta'lim-tarbiyaviy ish olib borishga qaratilgan innovatsion dastur hamda loyihalar ishlab chiqilishi lozim. Buning uchun har bir o'qituvchi o'zining fani yo'nalishi bo'yicha:

- 1) pedagogik g'oyaning maqsad va vazifalarini aniq belgilab olishi;
- 2) pedagogik g'oyalarni anglagan ehtiyoj darajasiga ko'tarishi;
- 3) o'quvchi va talabada mas'ullik va daxldorlik hissini shakllantirish;
- 4) fanga bo'lgan qiziqishini boshqa ijobiy motivlar asosida to'g'ri yo'naltirishi lozim.

**6. Psixologik tahlil.** Bunda asosan bolaning jismonan va ruhan sog'lomligi, kayfiyati, jamoadagi sog'lom muhit, bolalarning o'zaro munosabati, muloqot madaniyati, faol yoki sustligi, diqqatining barqarorligi va ko'lami, sezgirligi, topqirligi, hushyorligi, fanga bo'lgan qiziqishi, hozirjavobligi, o'qituvchi bilan o'zaro munosabati, jamoadagi o'zaro hurmat, bolaning idroki, mantiqiy va obrazli tafakkuri, induktiv va deduktiv xulosa chiqara olishi, xotirasi, materialni esda olib qolishi, bola fantaziyasi, bajaradigan ishiga ko'ra mas'ulligi, irodaviy sifatleri, qobiliyati, bilim, ko'nikma va malakalar ko'lami kabi jihatlari hisobga olinadi.

Buyuk pedagoglarimiz o'qituvchini «amaldagi ruhshunos» deyishgan. Bir soatlik dars jarayonida o'qituvchi 100 dan ortiq muammoli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarni ba'zan o'qituvchi anglab, anglamay yoki ataylab e'tiborsiz qoldiradigan holatlar ham bo'ladi. Aslida o'qituvchi muammoli vaziyatlarga beparvo qarashi mumkin emas. Jamoada sog'lom muhitni ta'min etishda, bolaning ma'naviy va axloqiy qiyofasining shakllanishida muammoli vaziyatlarning ijobiy yechimi alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish lozimki, o'qituvchi marhamat qilib darsga kirdimi, uni belgilangan vaqt jarayonida pedagogik talablar darajasida boshqarishi lozim.

biluv metodlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan bo'ladi.

Ilmiy tahlilda o'quvchi va talaba mustaqil ravishda ilmiy metodlar bilan ta'lim-tarbiya metodlarini qay darajada qo'llay olishiga e'tibor qaratiladi. Bu jarayon ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning ilmiy-pedagogik asosini tashkil etadi.

**3. Didaktik (ta'limiy) tahlil.** Ta'limiy tahlil keng qamrovli hisoblanadi. Ammo tahlilning bu turida ta'lim prinsiplarining mazmun-mohiyatiga asosiy e'tibor qaratiladi. Chunki ta'lim prinsiplari o'qituvchi va o'quvchi oldidagi vazifalarni uyg'unlashtirib, ta'limning nazariy va amaliy qonuniyatlarini to'g'ri hal etishning asosiy negizi hisoblanadi. Shunga muvofiq, har bir mavzuning ilmiyligi, tizimiy va izchil bo'lishi, oddiydan murakkab tomon yo'nalishi, talabaning bilimdonligi, mustaqil fikrlashi, faolligi, ko'rsatmalilik, yangi axborotlarni hayot va amaliyot bilan bog'liqligi hamda ta'limni talabaning yosh va individual xususiyatlari bilan bog'liqligi ochib beriladi. O'quv-biluv jarayoniga xos qaytar aloqaning ta'min etilishiga e'tibor qaratiladi.

**4. Metodik tahlil.** Bunda o'qituvchi faoliyatining bir-biri bilan izchil bog'liq bo'lgan ikki tomoni nazarda tutiladi. Birinchisi, qo'lidagi dasturga ko'ra egallagan bilimlari asosida mavzu necha soatga mo'ljallangan bo'lsa, uni qanday metodlar (usul va vositalar) asosida o'quvchining yoshi, jinsi va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yetkazib bera olishi bo'lsa, ikkinchisi, o'zining o'qituvchi mutaxassis sifatidagi metodik tajribalari qay darajada rivojlanganligini namoyish etish hisoblanadi. Mana shu ikkinchi qismida o'qituvchining ijodkorligi, metodik mahorati ko'rsatilishi lozim. O'qituvchining innovatsion faoliyati, ya'ni yangi pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq eta olishi va unga oid tajribalari aynan shu yerda ma'lum bo'ladi. O'qituvchining metodik mahorati birdaniga ko'zga tashlanmaydi. Ayniqsa, yosh o'qituvchilar o'z bilim va tajribalarini o'quvchiga yetkazib berishda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shunga muvofiq, oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarliklariga alohida e'tibor qaratiladi. Buning uchun uzluksiz pedagogik amaliyot jarayonida uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligi hal etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Shunday bo'lsa-da, hamon bo'lajak mutaxassislar maktab amaliyotida va keyingi mustaqil ish faoliyatlarida metodik jihatdan «o'tmasroq» bo'lib qolishmoqda. Buning mexanizmlari ilmiy jihatdan o'rganilib, tegishli tavsiyalar ko'rinishida asoslab berilishi lozim. Hamon bu jarayon tadqiqot predmeti sifatida o'rganilgan emas.

esa e'tiqodga aylanib borsin. Tarbiyaning kafolatli natijasi ana shunda ko'rinadi. Bu kabi dolzarb masalalar pedagogik tahlilning asosini tashkil etishi lozim. O'qituvchi mehnatining samarasi barkamol shaxs tarbiyasida o'z ifodasini topadi. Bu jarayon tinimsiz izlanish va ijodiy mehnatni talab qiladi.

**8. O'z darsini o'zi tahlil etish.** Bu jarayon uch xil shaklda amalga oshadi. Avvalo har bir o'qituvchi o'z darsini o'zi tahlil eta olishi lozim. Chunki kasbiy o'z-o'zini tarbiyalashning didaktik mohiyati aynan o'qituvchini o'z faoliyatiga o'zi qay darajada baho bera olishida ko'rinadi. O'qituvchi belgilangan vaqt me'yoriga asoslangan holda yuqorida ko'rib o'tilgan barcha tahlil turlarini o'zi ko'rib chiqishi lozim. Shu asosida o'zining yutug'i, kamchiligi hamda dars samaradorligiga erisha oladigan yo'l-yo'riqlarni izlab topgan o'qituvchida kasb mahorati izchil rivojlanib boradi.

**Ikkinchidan,** o'qituvchi boshqalarning darsini kuzatib, qiyosiy xulosalar chiqarish orqali o'z darsini o'zi tahlil etishi mumkin.

**Uchinchidan,** o'qituvchining darsi boshqa o'qituvchilar, mutaxassislar tomonidan kuzatilib, tegishli tahlillar asosida chiqarilgan xulosa va takliflarga muvofiq keyingi darslarini takomillashtirib borish maqsadida o'z darsini o'zi tahlil qilishi kiradi.

Ko'rib o'tilgan uchala holat ham bir-birini uyg'un ravishda to'ldirib borishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

